TARIX FALSAFASI KONSEPSIYALARI EVOLYUTSIYASI

O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazi ilmiy xodimi Azamat Amirov tomonidan yangi “Tarix falsafasi konsepsiyalari evolyutsiyasi” nomli monografiya chop etildi. Monografiyada zamonaviy falsafada tarix falsafasi konsepsiyasi turli xalqlar va millatlar tarixini o‘rganishda milliy xususiyatlarga tayanish, tarixiy taraqqiyotning ob’ektiv qonuniyatlarini hisobga olish, tarixni soxtalashtirish orqali yoshlar ongini manipulyatsiya qilishga bo‘lgan urinishlarning kosmopolitik, manqurtlik kabi salbiy oqibatlarini oldini olishda zamonaviy tarixiy tafakkurning bunyodkor, kreativ, yaratuvchanlik kabi ijobiy ta’sirlari falsafiy jihatdan ochib berilgan.